

**Soliq to'lovchilar va davlat soliq organlari o'rtasidagi soliq nizolarini  
sudgacha hal qilish tizimini 2023-2027-yillar uchun rivojlantirish**

**Konsepsiyasi**

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Konsepsiyaning maqsad va vazifalari

3-bob. Konsepsiyani amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari

3.1. Soliq nizolari sonini kamaytirish uchun shart-sharoitlar yaratish

3.2. Soliq nizolarini kamaytirish va ularni sudgacha hal etish maqsadida soliq qonunchiligini takomillashtirish

3.3. Sudgacha nizolarni hal qilish tizimining samarali ishlashini institutsional qo'llab-quvvatlanishi

3.3.1. Soliq nizolarini sudgacha hal qilish Departamentini tashkil etish va faoliyatini ta'minlash

3.3.2. Soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi nizolarni sudgacha hal etish bo'yicha Apellyatsiya kengashini tashkil etish va faoliyatini ta'minlash

3.4. Soliq nizolarini sudgacha hal qilishni raqamlashtirish

3.5. Soliq nizolarini hal etish yo'li sifatida mediatsiyadan foydalanish shartlari va mexanizmlarini uslubiy va huquqiy o'rganish

3.6. Soliq nizolarini hal qilishda mustaqil professional ekspertlarni jalb qilish

4-bob. Kutilayotgan natijalar

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

Soliq islohotlarining izchil amalga oshirilishi va soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish soliq yukining kamayishiga, soliq tizimi samaradorligining oshishiga va mamlakat budjetiga tushumlarning ko'payishiga olib kelmoqda.

Davlatning fiskal vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish demokratik soliq tizimining muhim elementi sifatida soliq to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun shart-sharoitlarni yaratish bilan birga olib borilishi kerak.

Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi nizolarning asosiy qismini hal qiladigan soliq nizolarini sudgacha hal etish institutining samaradorligi - ana shunday shartlardan biridir.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, soliq organlari bilan nizolarni sudgacha hal qilishning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- soliq to'lovchilarga auditorlar, soliq maslahatchilari va advokatlar xizmatiga murojaat qilmasdan, oddiy, tushunarli vaziyatlarda o'z huquqlarini mustaqil himoya qilish imkonini beruvchi tartibning soddaligi;

- shikoyatni ko'rib chiqilishi tezligi. Agar sud jarayonlari ko'pincha oylar davomida cho'zilib borsa, yuqori soliq organida shikoyatni ko'rib chiqish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda yakunlanadi;

- ko'rib chiqish tartibining tejamkorligi. Ma'muriy shikoyatni berishda, odatda, davlat boji va sud jarayoniga xos bo'lgan boshqa xarajatlarni to'lash bilan birga kelmaydi.

O'zbekistonda soliq nizolarini sudgacha hal qilish bo'yicha dastlabki qadamlar qo'yildi:

- Soliq kodeksida soliq to'lovchilarga soliq organlarining xatti-harakatlari va ularning mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan yuqori turuvchi soliq organiga shikoyat qilish imkonini beruvchi me'yorlar mavjud;

- Davlat soliq qo'mitasi markaziy apparati tuzilmasida Soliq nizolarini sudgacha hal etish departamenti tashkil etilgan;

- Soliq nizolarini hal etish maqsadida Davlat soliq qo'mitasi va Savdo-sanoat palatasining qo'shma apellyatsiya kengashi tuzilgan.

2018-2022-yillarda soliq to'lovchilar tomonidan tekshirishlar natijasida chiqarilgan soliq organlarining 1821 ta qarori ustidan sudgacha shikoyat qilingan. Qarorlarning 535 tasi yoki 29,4 foizi bo'yicha soliq to'lovchilarning vajlari to'liq yoki qisman qabul qilingan. Shu bilan birga, soliq to'lovchilar tomonidan e'tiroz bildirilgan 2969,0 mlrd.so'mlik miqdordan, qanoatlantirilgan da'volar summasi 874,4 mlrd.so'mni yoki 29,4 foizni tashkil etdi.

Biroq, soliq nizolarini sudgacha hal etish institutining imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayapti. Suddan tashqari nizolarni hal qilish doirasida ko'rilgan barcha soliq nizolarining 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismi hal qilingan, bu xorijdagidan 3 baravar kam. Shu bilan birga, soliq nizolarining soni kamaymayapti, bu esa soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Sudgacha hal qilish doirasidan tashqari, soliq to'lovchilarning o'z qonuniy manfaatlarini sudda himoya qilishga majbur qiladigan kamchilik va muammolar mavjud.

Ushbu kamchiliklar va muammolarga quyidagilar kiradi:

birinchidan, o'tkazilgan nazorat tadbirlari natijalari yuzasidan soliq to'lovchilarning zimmasiga yuklatilayotgan soliq majburiyatlari summalarining qonunga xilof ravishda oshirib ko'rsatilishi;

ikkinchidan, qandaydir subyektiv sabablarga ko'ra oldinroq bila turib noqonuniy qaror qabul qilinishi;

uchinchidan, soliq nizolarini sudgacha ko'rib chiqishning xolisona ko'rib chiqilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan idoralararo manfaatlarning mavjudligi;

to'rtinchidan, eskirgan fikrlash doirasini tark etmagan holda, soliq nizolarini hal etishning zamonaviy usullarini qabul qilishni istamaslik, o'tkazilgan soliq tekshiruv natijalari bo'yicha qabul qilingan qarorning aniq noqonuniy ekanligiga qaramay, quyi soliq organlarining yuqori turuvchi soliq organlari tarkibiy bo'linmalari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va himoyalaniishi;

beshinchidan, sudgacha nizolarni hal qilishda yoki sud muhokamasi jarayonida qonunga xilofligi aniqlangan qarorlarning qabul qilganligi uchun soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslariga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni qo'llamaslik holatlari;

oltinchidan, soliq nizolarini sudgacha ko'rib chiqish tartibini tartibga soluvchi qonunchilik bazasining yetarli emasligi;

yettinchidan, Soliq qo‘mitasi markaziy apparatining soliq nizolarini sudgacha hal etish bilan shug‘ullanadigan bo‘linma xodimlarining soni kamligidir.

Ko‘rsatib o‘tilgan ushbu kamchilik va muammolar ko‘rib chiqilayotgan soliq nizolari sonining kamayishiga, o‘z o‘rnida soliq to‘lovchilarning soliq organlariga nisbatan bo‘lgan ishonchining oshishiga va soliq majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarilishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Shu munosabat bilan davlat soliq organlari tizimida ma‘muriy odil sudlovni rivojlantirishning maqsad, vazifalari va asosiy yo‘nalishlarini belgilashda

2023-2027-yillar uchun mo‘ljallangan soliq to‘lovchilar va davlat soliq organlari o‘rtasidagi soliq nizolarini sudgacha hal etish tizimini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

## **2-bob. Konsyepsiyaning maqsad va vazifalari**

1. Konsyepsiyaning maqsadi – sudgacha bo‘lgan nizolarni hal qilish tizimini rivojlantirish orqali soliq to‘lovchilarning soliq organlariga nisbatan bo‘lgan ishonchini oshirish hamda soliq to‘lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishining yuqori standartlarini ta‘minlashdan iborat.

2. Konsyepsiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- soliq to‘lovchilar va soliq organlari o‘rtasidagi nizolar sonini kamaytirish;
- sudgacha bo‘lgan ish yuritish doirasidagi hal qilinadigan nizolarning salmog‘ini oshirish;
- hududiy soliq organlarining qabul qilingan qarorlar ustidan kiritilgan shikoyatlarini yuqori turuvchi soliq organining vakolatli bo‘linmasi tomonidan har tomonlama va xolisona ko‘rib chiqishi uchun sharoitlar yaratish;
- soliq organlarining mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilingan, shu jumladan soliq tekshiruvlari natijalari bo‘yicha qarorlarning qonuniyligi va asoslilikini oshirish;
- soliq organi mansabdor shaxslarining qonunga xilof xatti-harakatlari (harakatlari yoki harakatsizligi) yoki soliq organining soliq to‘lovchining huquqlarini buzuvchi qarorlarining (harakatlari) tahlili natijalari bo‘yicha;

soliq qonunchiligining yagona qo‘llanilishini joriy etish orqali soliq nizolarining yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan istiqbolli sabablarini kamaytirish va oldini olish;

- soliq nizolarini hal etishning qonunchilik tartiblarini takomillashtirish;
- sudgacha bo'lgan murojaatlarni hal qilish institutini soliq organlarining o'zini o'zi nazorat qilishning samarali mexanizmiga aylantirish;
- soliq nizolarini hal etish usuli sifatida mediatsiyadan (kelishuv tartib-taomillaridan) yaqin kelajakda foydalanish.

Belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi natijasida soliq organlarining nazorat ishlarining samaradorligini oshirishga va fiskal funksiyalarni muvaffaqiyatli bajarishda sezilarli yordam beradi, soliq nizolarini suddan tashqari hal etish shakllarining jozibadorligini oshiradi, soliq to'lovchilarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun sarflanadigan xarajatlarning kamaytirish imkonini yaratadi hamda soliq sohasidagi nizolarning suddan tashqari hal etishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

### **3-bob. Konsepsiyani amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari**

#### **3.1. Soliqqa oid nizolarning sonini kamaytirish maqsadida shart-sharoitlar yaratish**

1. Soliq organlarining nazorat faoliyati, shu jumladan, elektron hujjatlar aylanish tizimlarining ma'lumotlaridan foydalangan holatda, shaffofligini ta'minlash hamda o'tkazilgan tekshirish materiallarini (dalolatnomalar, soliq to'lovchilarning e'tiroz xatlari, qarorlari va boshqalar) DSQ axborot tizimiga joylashtirish.

2. Soliq nizolarining kelib chiqish sabablarini tahlil qilish, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va amalga oshirish.

3. Tekshirishdan oldingi tahlil va kameral nazorat vositalarining, shu jumladan, tekshirishlar o'tkazilishi mo'ljallangan soliq to'lovchilarda soliq qarzining kutilayotgan miqdori bo'yicha aniqligini oshirish.

4. Odatdagi qoidabuzarliklar va/yoki xatolarning takrorlanishini istisno qilish maqsadida ularni tahlil qilish va tasniflash.

5. Soliq nazorati natijalari bo'yicha soliq organlari tomonidan qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi va asosliligi monitoringini olib borish.

6. Soliq to'lovchining rekvizitlari ko'rsatilmagan holda, sudgacha nizolarni hal qilinishi natijasida qabul qilingan, davlat sirlarini o'z ichiga olmagan, xulosalarni nashr qilish.

7. Soliq nazoratini amalga oshiradigan soliq organlari xodimlari uchun uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish.

8. Qonunga xilof hatti-harakatlari (harakat yoki harakatsizligi) yoki soliq to‘lovchining haq huquqlarini buzuvchi qarorlarni qabul qilishda aybdor bo‘lgan; shu jumladan soliqlar va yig‘imlarni noqonuniy va asossiz qo‘shimcha hisoblash to‘g‘risidagi qarorlarni qabul qilgan soliq organlarining mansabdor shaxslariga nisbatan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, javobgarlik choralari amaliyotda qo‘llash;

9. Yuqori soliq organiga quyi soliq organi tomonidan soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish tartibini (protsedurasini) buzgan taqdirda, ular qabul qilgan qarorni bekor qilish va uni yangidan ko‘rib chiqish uchun qaytarib yuborish huquqini berish.

### **3.2. Soliq nizolarini va ularni sudgacha hal etish masalalarini kamaytirish maqsadida soliq qonunchiligini takomillashtirish**

1. Soliq nizolarining sudgacha hal etish doirasida ko‘rib chiqish tartibini takomillashtirish, uning ochiqligi va adolatliligini oshirish maqsadida Soliq kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish,

2. Soliq to‘lovchi va professional jamoat tashkilotlari vakillarining sudgacha bo‘lgan nizolarni hal etishda ishtirok etishining huquqiy kafolatlarini kuchaytirish.

3. Sudgacha nizolarni hal qilishning natijalari bo‘yicha qo‘shimcha hisoblangan to‘lovlarni kamaytirgan holda soliq maslahatchilari, advokatlar va auditorlarni jalb qilish uchun soliq to‘lovchining xarajatlarining bir qismini qoplashni joriy etish.

4. Soliq nizolarini sudgacha ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qabul qilingan qaror mazmunini qonunchilik bilan tartibga solish.

5. Soliq organlarining hujjatlari va ularning mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan yuqori turuvchi soliq organiga shikoyat qilinganda, uni isbotlash jarayonini me‘yoriy jihatdan tartibga solish.

6. Sudgacha bo‘lgan ish yuritishining natijalarini, shuningdek sud qarorlarini muntazam tahlil qilinishining natijalariga ko‘ra soliq qonunchiligiga tuzatishlar kiritib borish.

7. Soliq nizolarini sudgacha hal etishning huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan takliflarni to‘plash, umumlashtirish va tavsiyalar ishlab chiqish.

8. Qarorlar qabul qilishda yagona yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadida yuqori soliq organlarining soliq nizolari bo'yicha qabul qilgan qarorlarini umumlashtirish.

### **3.3. Sudgacha nizolarni hal qilish tizimining samarali ishlashini institutsional ta'minlash**

#### **3.3.1. Soliq nizolarini sudgacha hal qilish departamentini tashkil etish va faoliyatini ta'minlash**

1. *Variant 1.* Soliq qo'mitasi huzurida Soliq nizolarini sudgacha hal qilish departamentini tashkil etish. Departamentga O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan Departament direktori rahbarlik qiladi;

*Variant 2.* Soliq qo'mitasi tarkibida Soliq nizolarini sudgacha hal etish boshqarmasi negizida soliq organlarining qarorlari ustidan sudgacha shikoyat qilish Departamentini tashkil etilishi.

Departament o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosariga bo'ysunadi.

2. Departamentga quyidagi funksiyalar beriladi:

- soliq organlarining hujjatlari va ularning mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilgan shikoyatlar bo'yicha qarorlar qabul qilish;

- *1-variant* soliq nizolarini hal qilish chog'ida noqonuniy qarorlarni qabul qilishda aniqlangan, aybdor soliq organlarining mansabdor shaxslariga nisbatan qonunda nazarda tutilgan choralarni qo'llash to'g'risida qaror qabul qilish, yoki

*2-variant* murojaatlarni ko'rib chiqish natijasida aniqlangan, mansab huquqbuzarliklari holatlari yuzasidan javobgarlik choralarni ko'rish uchun Soliq qo'mitasining vakolatli bo'linmalariga o'tkazish;

- soliq nizolarini ko'rib chiqish amaliyotini umumlashtirish va Soliq qo'mitasining tegishli boshqarmalariga soliq qonunchiligining soliq nazorati va soliqqa tortish qoidalari qismini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish;

- soliq nizolarini sudgacha hal etish doirasida qarorlar qabul qilishda, sudlarning shu masalalar yuzasidan tutgan pozitsiyalarini hisobga olish maqsadida, soliq nizolari bo'yicha sud amaliyotini tahlil qilish;

- tekshirishlar natijasida chiqarilgan soliq organlarining qarorlarini monitoring va soliq nizolariga olib kelgan sabablarni tahlil qilish;

- soliq nizolarining kelib chiqish sabablarini bartaraf etish choralarini ishlab chiqish;

- soliq qonunchiligi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining ishlab chiqilishida ishtirok etish.

3. Departament faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan xodimlar sonini belgilash.

4. Departamentni zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, ularning malakasini doimiy ravishda oshirib borish va kamida 3 yilda bir marta baholash.

5. Bo'limni samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika bazasi bilan ta'minlash (alohida majlislar va uchrashuvlar o'tkazish zali, tegishli bo'lgan dasturiy ta'minotga ulash, video-konferens aloqa va h.k.).

### **3.3.2. Soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi nizolarni sudgacha hal etish bo'yicha Apellyatsiya kengashini tashkil etish va faoliyatini ta'minlash.**

1. Apellyatsiya kengashi nizolarni sudgacha hal etish maqsadida Soliq qo'mitasi huzurida kollegial - maslahat organi sifatida tuziladi.

2. Apellyatsiya kengashining tarkibi o'n besh nafar a'zodan iborat bo'lib, Soliq qo'mitasi raisining qarori bilan uch yillik muddatga tasdiqlanadi. Yetti nafar a'zo Soliq qo'mitasi markaziy apparatining rahbarlari va xodimlari orasidan, olti nafar a'zo professional hamjamiyatning nufuzli vakillari – soliq maslahatchilari, auditorlar, advokatlar, ikki nafari Moliya vazirligining vakillaridan tayinlanadi. Apellyatsiya kengashi a'zolari o'z faoliyatini jamoatchilik tartibi asosida amalga oshiradilar.

3. Apellyatsiya kengashi ko'rib chiqilayotgan masalalar yuzasidan tavsiya tusga ega bo'lgan xulosalarni qabul qiladi. Xulosa ko'rib chiqish uchun Soliq qo'mitasi raisiga yuboriladi, u uni hisobga olishi yoki yozma ravishda rad etishi mumkin, shuningdek ma'lumot uchun manfaatdor shaxslarga taqdim etiladi.

4. Apellyatsiya kengashining, davlat sirlarini o'z ichiga olmagan, xulosalari soliq.uz veb-saytida majburiy nashr qilinishi shart.

5. Kengash faoliyatini moddiy-texnik ta'minlash Soliq qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.



### **3.4. Soliq nizolarini sudgacha hal qilishni raqamlashtirish**

1. Soliq to'lovchilarga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etuvchi elektron xizmatni yaratish:

- onlayn – video-konferens aloqa orqali, shu jumladan hujjatlarni taqdim etish imkoniyati ega bo'lgan holda, soliq nizolarini ko'rib chiqishda ishtirok etish;

- ularning soliq organlariga kelib tushgan, shikoyatlarining ko'rib chiqilishini borishi va natijalari to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanish.

2. Quyidagilarni o'z ichiga olgan, ochiq ma'lumotlar bazalarini yaratish:

- tomonlarning pozitsiyalari bayon etilgan holda soliq to'lovchilar tomonidan e'tiroz bildirilgan soliq organlari qarorlari bo'yicha asosiy qoidalar;

- sudgacha hal etish jarayonida soliq to'lovchilarning shikoyatlarini ko'rib chiqish natijasida qabul qilingan qarorlar;

- jamlanma tahliliy materiallar, shu jumladan sud amaliyotining tahliliy natijalari.

3. Xatolarni kamaytirish va/yoki tuzatish maqsadida, soliq organlarining qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish natijasida shakllangan, ma'murchilik amaliyoti to'g'risida soliq to'lovchilarni xabardor qilish.

4. Har chorakda Departament faoliyati yakunlari to'g'risidagi ma'lumotlarni soliq.uz saytida e'lon qilish.

### **3.5. Soliq nizolarini hal etish yo'li sifatida mediatsiyani qo'llash shartlari va mexanizmlarini uslubiy va huquqiy ishlab chiqilishi**

1. Soliq nizolarini hal etishning muqobil tartib-qoidalarining xorijiy amaliyotini tahlil qilish va ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

2. Soliq nizolarini mediatsiya instituti yordamida hal etishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish.

3. O'zbekistonda nizolarni sudgacha hal etish amaliyotiga mediatsiya institutini joriy etishni qonunchilik asosida kiritishni ta'minlash.

### **3.6. Soliq nizolarini hal qilishda mustaqil professional ekspertlarni jalb qilish**

1. Sudgacha hal etish bosqichida soliq nizolarini ko'rib chiqish jarayonida professional ekspertning (soliq maslahatchisi, auditor, advokat) majburiy ishtiroki,

shu jumladan davlat budjeti mablag‘lari hisobidan kichik tadbirkorlik subyekti uchun, agarda soliq to‘lovchi yozma ariza asosida undan voz kechmagan taqdirda.

2. Soliq nizolarini sudgacha hal etish natijasida bekor qilingan qo‘shimcha hisoblanganlarning bir qismiga soliq maslahatchilari, advokatlar va auditorlarni jalb qilish uchun soliq to‘lovchi xarajatlarining bir qismini budjet mablag‘lari hisobidan qoplash.

3. Soliq nizolarini hal etishda Davlat soliq qo‘mitasi va Savdo-sanoat palatasi qo‘shma apellyatsiya kengashining, shuningdek, Soliq maslahatchilari palatasi ekspert kengashining xulosalaridan foydalanish.

#### **4-bob. Kutilayotgan natijalar**

1. Sudgacha hal etish institutini soliq nizolarini hal etishning asosiy vositasiga aylantirish.

2. O‘zbekiston Respublikasi sud tizimining yukini sezilarli darajada kamaytirish, soliq to‘lovchilarning soliq nizolarini sudgacha hal qilishdan manfaatdorligini oshirish.

3. Soliq organlari faoliyatida qonuniylikni tasdiqlash, nazorat ishlari natijalariga yangicha yondashuvlarni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

4. Jamiyat va davlat amaliyoti va talablariga muvofiq amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarga soliq organlarining samarali munosabatini oshirish.

5. Soliq ma‘murchiligi sifatini oshirish va soliq organlari faoliyatining shaffofligini ta‘minlash.

6. Soliq to‘lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish darajasini oshirish.

7. Soliq to‘lovchilarning davlat soliq organlari tizimiga ishonchining ortishi.

8. Soliq to‘lovchilarning qonun ustuvorligining konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishiga ishonchini ta‘minlash.